



# IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 5**

**2026**

## **MILLIY MAFKURA SHAKLLANISHIDA MA'NAVY VA MADANIY QADRIYATLARNING O'RNI**

**Turdali Malikov**

Namangan davlat texnika universiteti, dotsent

### **Annotatsiya**

Ma'naviy madaniyatning ahamiyati milliy ideologiyani shakllantirish va rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu ilmiy maqolada ma'naviy madaniyat qadriyat sifatida qaraladi hamda ma'naviyat va madaniyat o'zaro bog'liq va ajralmas tushunchalar ekani ta'kidlanadi. Shuningdek, milliy ideologiyaning rivojlanishida ma'naviy madaniyatning o'rni va ta'siri ilmiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Mazmun aksiologiya – qadriyatlar falsafasi konsepsiyasi orqali yoritiladi. Tadqiqotda aksiologiya, qadriyatni baholash, qadriyatga asoslangan yondashuv, ma'naviy insonning axloqiy fazilatlarini kabi tushunchalardan foydalanilgan.

**Kalit so'zlar:** milliy ideologiya, qadriyatlar falsafasi, milliy g'oya, aksiologiya, ma'naviy meros, ma'naviy madaniyat, individual ma'naviyat, ijtimoiy qadriyatlar, ijtimoiy madaniyat, inson va jamiyat munosabatlari, insoniy fazilatlar.

## **РОЛЬ ДУХОВНЫХ И КУЛЬТУРНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕОЛОГИИ**

**Турдали Маликов**

Наманганский государственный технический университет, доцент

### **Аннотация**

Важность духовной культуры является значимым фактором в формировании и развитии национальной идеологии. В данной научной статье духовная культура рассматривается как ценность, и подчеркивается взаимосвязь и неразделимость понятий духовности и культуры. Также научно и философски анализируется роль и влияние духовной культуры на развитие национальной идеологии. Содержание рассматривается через призму аксиологии – философии ценностей. В исследовании используются такие понятия, как аксиология, оценка ценностей, ценностный подход и моральные качества духовной личности.

**Ключевые слова:** национальная идеология, философия ценностей, национальная идея, аксиология, духовное наследие, духовная культура, индивидуальная духовность, социальные ценности, социальная культура, отношения человека и общества, человеческие качества.

## **THE ROLE OF SPIRITUAL AND CULTURAL VALUES IN THE FORMATION OF NATIONAL IDEOLOGY**

**Turdali Malikov**

Namangan State Technical University, Associate Professor

### **Abstract**

The importance of spiritual culture is an important factor in the formation and development of national ideology. This scientific article considers spiritual culture as a value and emphasizes that spirituality and culture are interrelated and inseparable concepts. Also, the role and influence of spiritual culture in the development of national ideology is analyzed scientifically and philosophically. The content is covered through the concept of axiology - the philosophy of values. The study uses concepts such as axiology, value assessment, value-based approach, and moral qualities of a spiritual person.

**Keywords:** national ideology, philosophy of values, national idea, axiology, spiritual heritage, spiritual culture, individual spirituality, social values, social culture, human and society relations, human qualities.

Qadriyat voqelikning turli tarkibiy unsurlarining obyektiv ijtimoiy ahamiyatini ifodalovchi falsafiy kategoriya bo'lib, uning mazmuni jamiyat subyektlarining ehtiyojlari, manfaatlari va maqsadlari bilan belgilanadi. "Qadriyat" tushunchasi "ehtiyoj", "manfaat", "ne'mat" va "foydalilik" kabi kategoriyalar bilan ma'no jihatdan yaqin bo'lsa-da, ular bilan to'liq aynan emas hamda o'zining mustaqil nazariy mazmuniga ega [1; 62–64-b.]. Ma'naviyatni qadriyat sifatida talqin etish inson ma'naviyati va madaniy

taraqqiyot darajasini baholashning muhim ilmiy-me'yoriy mezonini hisoblanadi. Qadriyatlar tizimi orqali jamiyat a'zolarining moddiy va ma'naviy hayot hodisalariga bo'lgan munosabatlari, ularning ijtimoiy ongndagi aks etishi namoyon bo'ladi. Qadriyatlar tizimining mohiyatini aniqlash va izohlash, xususan, ma'naviyatning turli ko'rinishlarini ilmiy asosda tahlil qilish faqat aksiologiya — qadriyatlar falsafasi doirasida amalga oshiriladi.

**Metodlar.** Tadqiqotda aksiologik yondashuv va qadriyatlar falsafasining ilmiy-metodologik asoslari qo'llanildi. Aksiologiya moddiy va ma'naviy borliqdagi turli obyekt va hodisalarning ijtimoiy ahamiyatini o'rganadigan falsafiy yo'nalish bo'lib, u voqelikni qadriyatlar tizimi orqali tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu yondashuvga ko'ra, qadriyatlar nafaqat obyektiv reallikning muayyan xususiyatlarini aks ettiradi, balki jamiyat subyektlarining ehtiyojlari, manfaatlari va maqsadlari bilan ham uzviy bog'liqdir. Aksiologik konsepsiyada inson va uning hayoti eng oliy, beqiyos qadriyat sifatida e'tirof etiladi.

Tadqiqot jarayonida inson faoliyatining barcha shakllari, xususan, mehnat faoliyati ham ijtimoiy va ma'naviy qadriyat sifatida tahlil qilindi. Mehnat nafaqat moddiy ne'matlar yaratish jarayoni, balki shaxsning ijtimoiylashuvi va ma'naviy kamolotiga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida qaraldi. Qadriyat yo'nalishlarini o'rganishda shaxsning dunyoqarashi, ijtimoiy pozitsiyasi hamda fuqarolik mas'uliyati bilan bog'liq jihatlarga alohida e'tibor qaratildi. Qadriyat yo'nalishi inson xulq-atvorini belgilovchi motivatsion tizimning muhim tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqilib, u shaxsning harakatlariga mazmun va yo'nalish beruvchi ichki reguliyator vazifasini bajarishi ilmiy asosda tahlil qilindi.

**Natijalar.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qadriyat yo'nalishi ma'naviy madaniyat tizimining markaziy va tizim hosil qiluvchi elementi hisoblanadi. U ma'naviy madaniyatning turli funksional darajalarida — nazariy, mafkuraviy hamda ijtimoiy-psixologik bosqichlarda umumiy rivojlanish tendensiyalarini ifodalovchi integrativ omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan qadriyat yo'nalishi ma'naviy jarayonlarning ichki birligini ta'minlovchi muhim metodologik kategoriya sifatida talqin etiladi [2; 78-b.].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, qadriyat yo'nalishi obyektiv ijtimoiy asoslar va subyektiv madaniy ong o'rtasidagi dialektik munosabatlarni tartibga soluvchi mexanizm vazifasini bajaradi. Bu jarayonda ma'naviy qadriyatlar tarkibida moddiy va ideal omillarning o'zaro uyg'unligi, ularning bir-birini to'ldiruvchi xususiyati yaqqol namoyon bo'ladi. Natijada shaxs va jamiyat o'rtasidagi ma'naviy integratsiya jarayoni mustahkamlanadi. Olingan natijalar qadriyat yo'nalishining ijtimoiy dinamik jarayonlarga nisbatan yuqori sezgirlikka ega ekanligini tasdiqlaydi. U jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi bilan bevosita bog'liq holda shaxsning hayotiy faolligi, xulq-atvori va motivatsion tizimini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida ishlaydi. Shu orqali qadriyat yo'nalishi shaxsni ijtimoiy taraqqiyot talablariga mos ravishda muhim ma'naviy qadriyatlarini anglash, tanlash va ularga amal qilishga yo'naltiradi [3; 256-b.]. Shuningdek, ma'naviy qadriyatlar insonning bilish, hissiy va irodaviy komponentlarini o'z ichiga olgan murakkab tizim sifatida uning hayot mazmunini anglashga va o'zini ijodiy subyekt sifatida namoyon etishiga imkon yaratadi. Bu esa shaxsning ijtimoiy faolligi va ma'naviy yetukligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ham ko'rsatadiki, shaxsning qadriyat yo'nalishi bilan uning real xulq-atvori o'rtasida uyg'unlikning mavjudligi ijtimoiy barqarorlik va ma'naviy rivojlanishning muhim shartlaridan biridir. Ushbu uyg'unlik buzilganda esa ma'naviy ziddiyatlar yuzaga kelib, shaxs va jamiyat o'rtasida konfliktogen holatlar paydo bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, qadriyatlar tizimining tarixiylik tamoyiliga asoslangan holda o'zgaruvchan xususiyatga ega ekani aniqlandi. Ya'ni, muayyan tarixiy bosqichda ustuvor bo'lgan qadriyatlar ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sharoitlar o'zgarishi bilan o'z ahamiyatini yo'qotishi yoki yangi mazmun bilan boyishi mumkin. Bu esa qadriyatlar tizimining dinamik va evolyutsion xarakterga ega ekanligini tasdiqlaydi [4; 280-b.]. Tadqiqot natijalari qadriyat yo'nalishiga ega bo'lgan shaxslar va ijtimoiy harakatlar jamiyat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi ekanligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

**Muhokama.** Tadqiqot natijalari asosida shuni ta'kidlash mumkinki, qadriyat yo'nalishlari shaxs xulq-atvorini tartibga soluvchi asosiy ijtimoiy-psixologik va ma'naviy reguliyatorlardan biri hisoblanadi. U ijtimoiy ongning barcha shakllarida — falsafiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy va madaniy qatlamlarda o'z ifodasini topib, jamiyatdagi obyektiv ijtimoiy munosabatlarning subyektiv ongndagi aks etishi sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan qadriyat yo'nalishlari shaxs va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonining muhim bog'lovchi bo'g'ini hisoblanadi [5; 45–52-b.]. Qadriyat yo'nalishi shaxsning dunyoqarash tizimini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, uning ijtimoiy pozitsiyasi, hayotiy qarashlari hamda

jamiyatdagi o'rnini belgilab beradi. U inson ongida ma'naviy, siyosiy va axloqiy qadriyatlarning integratsiyalashgan tizimini hosil qiladi hamda shaxsning ijtimoiy faoliyatini yo'naltiruvchi ichki mexanizm sifatida xizmat qiladi. Shu sababli qadriyat yo'nalishi shaxsning ijtimoiy xulq-atvorini nafaqat tartibga soladi, balki uni maqsadga yo'naltirilgan faoliyatga undovchi omil sifatida ham qaraladi [6; 401–405-b.].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, har bir tarixiy davrda qadriyatlar tizimi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi, madaniy taraqqiyoti hamda ma'naviy ehtiyojlariga mos ravishda shakllanadi va transformatsiyaga uchraydi. Bu jarayon qadriyatlarning statik emas, balki dinamik va tarixiy xususiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Ya'ni, muayyan davrda ustuvor bo'lgan qadriyatlar keyingi tarixiy bosqichlarda yangi ijtimoiy sharoitlar ta'sirida qayta talqin qilinishi yoki o'zgarishi mumkin. Shuningdek, qadriyatlar tizimi insonning ijtimoiylashuv jarayonida muhim rol o'ynaydi. U shaxsni jamiyatning madaniy, tarixiy va ma'naviy tajribasi bilan bog'laydi, uni ijtimoiy muhitga moslashtiradi hamda jamiyatda qabul qilingan me'yor va tamoyillarni ichkilashtirishga xizmat qiladi. Shu orqali qadriyatlar insonni nafaqat ijtimoiy mavjudot sifatida shakllantiradi, balki uning ma'naviy kamolotini ham ta'minlaydi [7; 112-b.]. Shuni alohida e'tirof etish kerakki, qadriyat yo'nalishlari jamiyat taraqqiyotining uzluksizligini ta'minlovchi, shaxs va jamiyat o'rtasidagi ma'naviy integratsiyani mustahkamlovchi hamda ijtimoiy ongning rivojlanishiga ta'sir etuvchi muhim omil sifatida ilmiy jihatdan asoslanadi.

Xulosa. O'tkazilgan nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy taraqqiyot jarayoni turli madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir, almashinuv va integratsiya asosida shakllanadi hamda rivojlanadi. Har bir madaniyat o'ziga xos tarixiy tajriba, ma'naviy meros va milliy qadriyatlar tizimiga ega bo'lib, ushbu qadriyatlarni saqlash, rivojlantirish va keyingi avlodlarga yetkazish jamiyat barqaror taraqqiyotining muhim sharti hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ham tasdiqlaydiki, globallashtirish jarayonlari kuchayib borayotgan hozirgi davrda madaniyatlararo integratsiya va o'zaro ta'sirning kengayishi kuzatilmoqda. Biroq ushbu jarayonlar bilan bir qatorda har bir millat o'zining milliy o'ziga xosligini saqlashga, an'anaviy qadriyatlari, urf-odatlarini, tili va ma'naviy-madaniy merosini asrab-avaylashga intiladi. Bu holat globallashtirish va milliy identifikatsiya o'rtasidagi dialektik munosabat mavjudligini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, ma'naviy madaniyat milliy ideologiyaning shakllanishi va rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan fundamental omil sifatida e'tirof etiladi. U jamiyatning ma'naviy asoslarini mustahkamlash, yosh avlodning dunyoqarashini shakllantirish hamda milliy ong va fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishda muhim vazifani bajaradi. Umuman olganda, qadriyatlar tizimi va ma'naviy madaniyatning uyg'un rivojlanishi jamiyatda barqaror ijtimoiy muhitni ta'minlashga, milliy ideologiyaning ilmiy asosda shakllanishiga hamda shaxsning ma'naviy yetukligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois ma'naviy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish har qanday jamiyat taraqqiyotining strategik yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Межуев В. Н. Суверенность философского знания // Философские науки. – Москва, 2001. – № 3. – С. 62–64.
2. Назаров К. Н. Философия: логика, этика, эстетика: учебное пособие. – Ташкент, 2003. – С. 78.
3. Абдираззиков А. А. Национальные духовные ценности и их место в самосознании нации: монография. – Ташкент, 1995. – С. 256.
4. Qodirov A. Ma'naviyat asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 280 b.
5. Шабров О. Ф. Духовные ценности как основа национально-государственной идентичности // Социально-политические науки. – 2020. – № 3. – С. 45–52.
6. Эшмуратов А. А., Исмаилова Ж. Ф. Роль национальных ценностей в повышении духовности молодежи // International Journal of Artificial Intelligence. – 2024. – № 6. – С. 401–405.
7. Xayrullayev M. M., Jo'rayev N. va boshq. Falsafa: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Sharq, 2017. – 112 b.